

12

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI


"TASDIQLAYMAN"
G.Sh.Rixsiyeva
2020 yil "28" 08


"KELISHILDI"
Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi
2020 yil "29" 08

Ro'yxatga olindi: № MD-5A120201

№ MD-5A120202

2020 yil "29" 08

TARJIMANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120 000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:	5A120201 – Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik (sharq tillari bo'yicha) 5A120202 – Sinxron tarjima (sharq tillari bo'yicha)

Toshkent - 2020

Fan/modul kodi 5ATLA225	O'quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4-5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4-5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari	60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga tilda va diskursda o'z aksini topgan xalq madaniyati va uni tarjimada ifodalanishi haqida bilim berish, ularda til va madaniyatning o'zaro aloqasi va ta'siri bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilish ko'nikma va malakasini shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasini, muqobilsiz leksika va lakunalarini, tilning paremiologik va frazeologik fondini, stereotiplar, ramzlarni, tilning metaforalarini; matnlarni lingvomadaniy tahlil qila olish, lingvomadaniy birliklarni tarjima qilish, lingvomadaniy matnlar bilan ishlash metodlarini qo'llay olish, o'zbek va turli madaniyatlarga xos lingvomadaniy birliklarni qiyosiy tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Til, madaniyat, antropologiya va lingvokulturologiya Til va madaniyat. Til – madaniyatning ko'zgusi. Til – madaniyat tashuvchisi. Tilga “ichki” va “tashqi” jihatdan yondashish. Madaniy antropologiya va lingvokulturologiya. Antropologiya inson haqidagi fan. Fizik antropologiya va madaniy antropologiya. 2-mavzu. Antroposentrik paradigma va uning lingvokulturologiyadagi o'rni Tilshunoslikda “paradigma” tushunchasi. Tilshunoslikda paradigmalarning o'zgarishi masalasi. Paradigmalarning qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik turlari. Bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasi va uning lingvokulturologiyadagi o'rni. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar orasidagi maqomi. Lingvokulturologiyaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan chambarchas bog'liqligi. 3- mavzu. Madaniyat va uning o'rganilishi “Madaniyat” tushunchasi. Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuchi va qobiliyatlarining muayyan darajasi. Madaniyatshunoslikda madaniyatning o'rganilishi. Madaniyatning o'rganilishidagi turli nuqtayi nazarlar.			

O'zbekiston, 2017. - 48 b. 7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b. 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. www.lex.uz. 9. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М.: «Академия», 2001. – 208 с. Axborot manbalari 10. http://www.ziyo-net.uz 11. http://www.kutubxona.uz 12. http://www.azquotes.com/quote/702521 13. http://eksion.net/turk-mitologisi-ve-tanricalar 14. http://www.jasstudies.com 15. http://www.bilinmeyenturktarihi.com 16. http://newsgroups.derkeiler.com	
7.	Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil “29” 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil “29” 08 dagi 452 - sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun ma'sular: Sh. Usmanova – TDSHU, “Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika” kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
9.	Taqrizchilar: D.Xudoyberganova – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori; X.Alimova – TDSHU, “Eron-afg'on filologiyasi” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori.

	“til-madaniyat” haqidagi lingvistik ta’limotlar, olamning lisoniy manzarasi, kommunikantlar orasida o’zaro tushunishni ta’minlovchi omillar bo’yicha <i>ko’nikmalariga ega bo’lishi</i>; matnlarni lingvomadaniy tahlil qila olish, lingvomadaniy birliklarni tarjima qilish, muomalaning axloqiy me’yorlarini tarjimada aks ettira bilish, lingvomadaniy matnlar bilan ishlash metodlarini qo’llay olish, til faktlarini tahlil qilishda integrativ metodlarni qo’llay bilish, nutqda madaniy ahamiyatga molik birliklarni topa olish, lingvokulturologik sharhlarga chegaradosh fanlardan ma’lumotlar kiritish, o’zga til lingvomadaniy jamoasidagi qadriyatga molik o’rinlarni belgilay olish, tillararo va madaniyatlararo yuz berishi mumkin bo’lgan senariylar modelini ishlab chiqish, o’zbek va turli madaniyatlarga xos lingvomadaniy birliklarni qiyosiy tadqiq etish <i>malakalariga ega bo’lishi kerak</i>.
4.	VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: - ma’ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo’lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to’la o’zlashtirish, tahlil natijalarini to’g’ri aks ettira olish, o’rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo’yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar - Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. 5th ed. –New York: McGraw-Hill, 2010. - 528 p. - Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Darslik. – T.: ToshDShI, 2017. - 256 b. - Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. O’quv qo’llanma. –T.: ToshDShI, 2015. - 192 b. Qo’shimcha adabiyotlar - Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so’zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11. - Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O’zbekiston, 2016. - 56 b. - Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.:

Madaniyat va inson. Madaniyat va tamaddun. 4-mavzu. Lingvokulturologiyaning vujudga kelishi, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Lingvokulturologiyaning vujudga kelishi. Lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi. Lingvokulturologiyaning tavsifi. Lingvokulturologiyaning asosiy yo’nalishlari. Lingvokulturologiya maktablari. Lingvokulturologiyaning predmeti. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti. Lingvokulturologiyaning maqsadi va vazifalari. 5-mavzu. Til va madaniyatning o’zaro aloqasi Til va madaniyatning o’zaro aloqasi masalasi. Fanda “til-madaniyat” masalasining o’rganilishi. Madaniyat haqidagi tasavvurlarning tilda namoyon bo’lish usullari. Olamning lisoniy manzarasi. Olamning konseptual manzarasi. “Geshtalt” tushunchasi. 6-mavzu. Muqobilsiz leksika va uni tarjimada berish yo’llari “Muqobilsiz leksika” tushunchasi. Muqobilsiz leksika haqidagi qarashlar. Muqobilsiz leksika turlari. Muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari. Muqobilsiz leksikaning vujudga kelish sabablari haqidagi qarashlar. Muqobilsiz leksikani tarjima qilish usullari. 7-mavzu. Frazelogizmlarning lingvomadaniy tahlili va ularni tarjimada berish usullari Frazelogik birliklar haqida tushuncha. Frazelogizmlarga turli yondashuvlar. Frazelogizmlarning milliy-madaniy semantikasi. Frazelogizmlarni tarjimada berish usullari. To’la ekvivalent frazeologizmlar vositasida tarjima qilish. Muqobil frazeologizmlar bilan tarjima qilish. Tasviriy usulda tarjima qilish. Kalka usulda tarjima qilish. 8-mavzu. O’xshatishlar va ularning tarjimasidagi o’ziga xos jihatlar O’xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsul. O’xshatish va uning turlari. Erkin o’xshatishlar. Turg’un o’xshatishlar. Turli lingvomadaniyatlardagi o’xshatishlarning qiyosiy tahlili. O’xshatishlar tarjimasining o’ziga xos jihatlari. 9-mavzu. Metafora va uning tarjimada ifodalanishi Metafora tildagi universal hodisa. Metafora obrazli-motivlashgan so’z. Metaforalarning madaniyatdagi roli. Metaforalar tarjimasini. 10-mavzu. Evfemizm va disfemizm Evfemizm hodisasi. Evfemizmlarda madaniy o’xshashliklarning aks etishi. Evfemizmlarda madaniy farqlarning aks etishi. Tabu. Disfemizm hodisasi. 11-mavzu. Lakuna va uni tarjimada bartaraf etish yo’llari “Lakuna” tushunchasi. Lakunalarning turlari. Ijtimoiy-madaniy lakunalar. Subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar. Faoliyat-kommunikativ lakunalar. Matniy lakunalar. Madaniy makondagi lakunalar. Paralingvistik lakunalar. Lakunalarni tarjimada bartaraf etish yo’llari. 12-mavzu. Ramz – inson ruhiyatining tili Ramzlarning vujudga kelishi. Ramz – inson ruhiyatining tili. Ramz

universal kategoriya. Ramzning belgilik xususiyati. Ramz, belgi va obraz. Turli lingvomadaniyat ramzlarining qiyosiy tahlili.

13-mavzu. Milliy madaniyatning stereotiplari

“Stereotip” tushunchasi. “Stereotip” tushunchasining turli fanlardagi talqini. Stereotip turlari. Ijtimoiy stereotiplar. Muloqot stereotiplari. Mental stereotiplar. Madaniy stereotiplar. Etnomadaniy stereotiplar. Stereotip madaniyat vakillarining tafakkuri va tili. Stereotip yuzaga kelishining sabablari.

14-mavzu. Inson – milliy mentallik va til egasi

Inson – milliy mentallik va til egasi. Inson – turli fanlarning tadqiqot obyekti. Til inson shaxsini aniqlashda muhim vositalardan biri. Lisoniy shaxs. Lisoniy shaxsni shakllantiruvchi omillar. Lisoniy shaxsning darajali modeli. Lisoniy shaxs mohiyatining tarkibiy qismlari: qadriyat, madaniyat, individuallik.

15-mavzu. Jamiyat, madaniyat va tilda erkak-ayol ziddiyati

“Erkak – ayol” ziddiyati haqidagi qarashlar. Turkiy xalqlar madaniyatida “erkak” va “ayol” tushunchalari. Turkiy xalqlarning mif va dostonlarida ayol obrazi. Turli madaniyatlarda ayollarning mavqeyi. Gender – sotsio-madaniy kategoriya.

III. Amaliy mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar

((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg‘ulotlari), (Kurs ishi),

(Mustaqil ta‘lim) o‘quv rejada ko‘rsatilgan turi (nomi) bo‘yicha yoziladi)

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Antropologiya va lingvokulturologiya
2. Paradigmalarining qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik turlari
3. Madaniyatning o‘rganilishidagi turli nuqtayi nazarlar
4. Lingvokulturologiyaning asosiy yo‘nalishlari va maktablari
5. Til va madaniyatning o‘zaro aloqasi masalasi
6. Muqobilsiz leksika turlari va ularni tarjima qilish usullari
7. Frazologizmlarning milliy-madaniy semantikasi va ularni tarjimada berish usullari
8. O‘xshatishlarning qiyosiy tahlili va tarjimasining o‘ziga xos jihatlari
9. Metafora va uning tarjimasi
10. Evfemizm va disfemizm
11. Lakuna va uni tarjimada bartaraf etish yo‘llari
12. Turli lingvomadaniyat ramzlarining qiyosiy tahlili
13. Stereotip turlari
14. Inson – turli fanlarning tadqiqot obyekti
15. “Erkak – ayol” ziddiyati

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar

qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Kurs ishi

Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilshunoslikdagi paradigma turlari
 2. Madaniyat va tamaddun
 3. Olamning lisoniy manzarasi
 4. Til va madaniyatning o‘zaro aloqasi
 5. O‘rganilayotgan sharq ligvomadaniyatida muqobilsiz leksika
 6. O‘rganilayotgan sharq ligvomadaniyatida frazeologizmlar
 7. O‘rganilayotgan sharq ligvomadaniyatida o‘xshatishlar
 8. O‘rganilayotgan sharq ligvomadaniyatida lakunalar
 9. O‘rganilayotgan sharq ligvomadaniyatida evfemizm va disfemizmlar
 10. O‘rganilayotgan sharq ligvomadaniyatida ramzlarning qiyosiy tahlili
- Kurs ishlarini belgilangan Nizom asosida yozish va taqdimot shaklida himoya qilish tavsiya etiladi.

V. Mustaqil ta‘lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta‘lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Turli lingvomadaniyatlarda olam lisoniy manzarasining aks etishi
 2. O‘zbek va boshqa madaniyat vakillarining dunyo tasvirida konseptlarning qiyosiy tahlili
 3. Madaniyatni tushunish va aniqlashdagi nuqtayi nazarlar
 4. Madaniyat va uning turlari
 5. Sharq xalqlari mentaliteti
 6. O‘rganilayotgan sharq tilidagi realiyalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish yo‘llari
 7. Lingvokulturologik asosiy tushunchalar lug‘atini tuzish
 8. O‘rganilayotgan til frazeologizmlarining lingvomadaniy tahlili
 9. O‘rganilayotgan tilda gender masalasi
 10. Tarjimada lakunalarni namoyon bo‘lishi va ularni to‘ldirish usullari
 11. O‘zbek va sharq tillaridagi turg‘un o‘xshatishlarning lingvomadaniy tahlili
 12. Sharq lingvomadaniyatida evfemizmning ifodalanishi
 13. Sharq lingvomadaniyatida raqamlarning ramziy ma‘nolari
 14. Sharq lingvomadaniyatida ranglarning ramziy ma‘nolari
- Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. VI Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasi, lingvokulturologiya tarixi va lingvokulturologiyaning asosiy yo‘nalishlari, muqobilsiz leksika, lakunalar, tilning paremiologik va frazeologik fondi, etalonlar, stereotiplar, ramzlar, metaforalar haqida *tasavvur va bilimga ega bo‘lishi*;
- nutqiy muomala va nutq etiketi, til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri,